

2021-yilning yanvar-dekabr oylarida Farg'ona viloyatida Xizmatlar sohasining rivojlanishi



Dastlabki ma'lumotlar

120,0 %

O'sish sur'ati

17 810,1
mlrd. so'm

Xizmatlar hajmi

69,9 %

Kichik
tadbirkorlikning
ulushi

Xizmatlar sohasi

4 616,2
ming so'm

Aholi jon boshiga
ko'rsatilgan
xizmatlar

Iqtisodiyotning ushbu sektori turli xil faoliyat turlarini o'z ichiga olib, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga yordam beradi

Farg'ona viloyatining iqtisodiy holatini baholashda xizmatlar sohasining ko'lami, tarkibi va rivojlanish darajasi alohida o'rin tutadi.

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasi bu — korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir.

Ushbu sohani ko'pincha rivojlangan zamonaviy infratuzilma tufayli sanoatdan keyingi iqtisodiy tuzilma tarzida ko'riladi.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021-yilning yanvar-dekabr oyida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **17 810,1 mlrd. so'mga** yetdi. Uning nominal hajmi **4 115,7 mlrd. so'mga** oshdi. Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati **120,0 %**ni tashkil etdi.

Ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari

(2021-yil yanvar-dekabr oyida)

**4 115,7
mlrd. so'mga**

**Hajmning
o'sishi**

**17 810,1
mlrd. so'm**

Xizmatlar hajmi

120,0%

O'sish sur'ati



Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021- yilning yanvar -dekabr oyida)	Hajmi, mlrd. so'm	2020- yilga nisbatan o'sish sur'ati, %da
Xizmatlar - jami	17 810,1	120,0
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	905,2	116,8
Moliyaviy xizmatlar	3 156,1	134,0
Transport xizmatlari	3 666,3	124,9
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	3 419,9	121,5
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	440,1	109,6
Savdo xizmatlari	5 650,7	109,9
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	478,6	129,8
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	711,1	120,2
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	372,0	140,1
Ijara xizmatlari	406,4	118,9
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	485,3	126,5
Shaxsiy xizmatlar	961,4	114,3
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	149,9	117,2
Boshqa xizmatlar	427,0	124,6




Farg'ona viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi

2021-yil yanvar-dekabr oylarida

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari taqqoslanishi, %da




Jamiga nisbatan yuqori ulushga ega savdo xizmatlari (**31,7%**), transport xizmatlari (**20,6 %**), shuningdek, moliyaviy xizmatlar (**17,7 %**), aloqa va axborotlashtirish xizmatlarida (**5,1 %**) qayd etildi.

Dastlabki ma'lumotlar

2021-yil yanvar-dekabr oylarida ko'rsatilgan transport xizmatlari tarkibi, %

2021-yil yanvar-dekabr oylarida transport xizmatlari hajmi Farg'ona viloyatida 3 666,3 mlrd. so'mni tashkil etdi. Shundan, avtotransport xizmati 3 419,9 mlrd. so'mni, jami transport xizmatlarining 124,9 %ni tashkil etadi.



Dastlabki ma'lumotlar



Savdo bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

2021-yilning yanvar-dekabr oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida savdo xizmatlarining ulushi **31,7** %ni tashkil etdi, bu esa **5 650,7** mlrd. so'mga to'g'ri keldi.

Taqqoslash uchun: 2020-yilda ularning hajmi **4 638,7** mlrd. so'mga yoki umumiy hajmining **33,9** %iga to'g'ri keldi.

Savdo xizmatlari



Dastlabki ma'lumotlar



Moliyaviy xizmatlar hajmi moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Moliyaviy xizmatlar

(2021-yilning yanvar-dekabr oylarida)



Moliyaviy xizmatlar hajmi **3 156,1** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yilda ularning hajmi **2 308,6** mlrd. so'mga teng bo'lgan.

Ularining umumiy xizmatlar hajmidagi ulushi **17,7** %ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020-yilda ularning ulushi **16,9** %ni tashkil etdi.



O'tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmini **847,5** mlrd. so'mga ko'payishi kuzatildi.

Moliyaviy xizmatlarning o'sishi **134,0** %ni tashkil etdi.



Dastlabki ma'lumotlar




Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, AKT rivojlanishi mamlakatning raqobatbardoshlik darajasiga bevosita ta'sir qiladi, sizga katta hajmdagi ma'lumotlarni to'plash va umumlashtirishga imkon beradi, strategik darajada boshqaruv uchun katta imkoniyatlar ochadi.



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2021-yilning yanvar-dekabr oylarida)

2021-yilning yanvar-dekabr oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining hajmi **905,2** mlrd. so'm darajasida belgilandi.

2020-yilga nisbatan ushbu turdagi xizmatlarning o'sish sur'ati **116,8** %ga yetdi.



Taqqoslash uchun: 2020-yilda ushbu xizmat turi hajmi **767,9** mlrd. so'm yoki ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining **5,6** %ga teng bo'ldi. O'sish sur'ati **114,9** %ni tashkil etdi.



Farg'ona viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi

2021-yil yanvar-dekabr oylarida

Dastlabki ma'lumotlar



Amaliyot shuni ko'rsatadiki, bilimlar va xizmatlar iqtisodiyotini shakllantirishning eng muhim sharti kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashning rivojlangan tizimi hisoblanadi. Amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida mamlakatga turli sohalarda yuqori malakali mutaxassislar kerak. Yuqori malakali kadrlar innovatsion iqtisodiyotning harakatlantiruvchi kuchi bo'ladi.

Ta'lim sohasidagi xizmatlar

564,3
mlrd. so'm

Ko'rsatilgan bozor
xizmatlari hajmi

711,1
mlrd. so'm

2020-y.
yanvar-
dekabr



2021-y.
yanvar-
dekabr

2021-yilning yanvar-dekabr oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **711,1** mlrd. so'mga yetib, bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **4,0** %ni tashkil etdi. 2020-yilga nisbatan **120,2** %ni tashkil etdi.

97,0 %

2020-yilga nisbatan
%da

120,2%

Dastlabki ma'lumotlar



Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



2020-yilga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi 87,5 mlrd. so'mga ko'paygan.

Dastlabki ma'lumotlar



Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog'liqni saqlash muassasalarining tibbiy va sanitariya xizmatlari, shuningdek, tashkilotlar va tibbiyot korxonalari, stomatologiya, fizioterapevtik, gomeopatik poliklinikalar, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya va sanitariya epidemiologiyalar tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymatidir.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

Yanvar-dekabr

2020-y.

237,3 mlrd.
so'm

Xizmatlar
hajmi

2021-y.

372,0 mlrd.
so'm

1,7 %

Xizmatlar-
ning jami
hajmidagi
ulushi

2,1 %

12

Farg'ona viloyatida xizmatlar sohasining
rivojlanishi

2021-yil yanvar-dekabr oylarida

Hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021-yilning yanvar-dekabr oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, %da
Farg'ona viloyati	17 810,1	120,0
Farg'ona sh	6 979,5	120,5
Qo'qon sh	2 376,4	119,9
Quvasoy sh	414,8	120,2
Marg'ilon sh	1 742,1	120,0
Oltiariq t	554,3	119,8
Qo'shtepa t	359,9	119,9
Bag'dod t	338,0	118,6
Buvayda t	578,3	120,3
Beshariq t	358,0	120,1
Quva t	465,5	119,3
Uchko'prik t	663,5	119,0
Rishton t	475,7	119,7
So'x t	208,5	117,9
Toshloq t	450,7	120,0
O'zbekiston t	366,9	119,0
Farg'ona t	507,7	119,3
Dang'ara t	335,1	118,7
Furqat t	253,7	117,9
Yozyovon t	381,6	119,9

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining har oyda o'sishi kuzatilmoqda.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

Xizmatlar hajmi

4 616,2 ming
so'm

Hajmning o'sishi

999,1 ming
so'm

2021-yilning yanvar-dekabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 4 616,2 ming so'mga yetdi.

2020-yilga nisbatan 117,7 %ni tashkil etdi.

117,7 %

O'sish sur'ati

Taqqoslash uchun:

2020-yilda aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 3 617,1 ming so'mni tashkil etdi.

14


Farg'ona viloyatida xizmatlar sohasining
rivojlanishi

2021-yil yanvar-dekabr oylarida

Dastlabki ma'lumotlar

2022-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi **66,4 %**, sanoat **21,4 %**, qurilish **7,6 %**ga yetdi. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasi **4,6 %**ga to'g'ri keladi.

2022- yilning 1-yanvar holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning tarkibi, %da
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi.
Tel.: 73-241-98-82